
Har bir murojaat nazoratga olindi

Qo'shtepa tumani hokimi Ilyos Novikovning navbatdagi qabuli tashkil etildi.

Qabul davomida tuman fuqarolari tomonidan uy-joy, kadastr, bandlik, elektr, sog'liqni tiklash uchun moddiy yordam, suyultirilgan gaz baloni olish, tadbirkorlik qilish uchun kredit, xajga borish uchun amaliy yordam va boshqa masalalarda murojaatlar qilindi.

Qabulda tuman hokimi fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlarini birma-bir tingladi. Ular qo'ygan muammolar bo'yicha hokim o'rinbosarlari va boshqa tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rdi. Ayrim murojaatlarda ko'rsatilgan masalalarni hal etish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriq va ko'rsatmalar berdi.





“Fayz” MFY Pillakor ko‘chasida yashovchi O.Teshaboeva farzandini ishga joylashtirish masalasida murojaat qildi. Ushbu murojaat joyida ko‘rib chiqildi va tuman bandlikka ko‘maklashish markazi mas‘ul vakillari tomonidan murojaatchiga farzandining mutaxassisligi bo‘yicha bo‘sh ish o‘rinlariga tavsiya etildi.



“Loyson” MFY Buyuk ipak yo‘li ko‘chasida yashovchi fuqaro M.Isomiddinov elektr tarmog‘ini tortish masalasida murojaat qildi. Ushbu murojaat bo‘yicha tuman elektr ta‘minoti korxonasi bosh injeneri 17-dekabrga qadar masalani ijobiy hal etishga va‘da berdi.

2019-12-10 19:09:48